



Tadqiqot.uz



**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**31 DEKABR
№35**

CONFERENCES.UZ

**“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”
8-ҚИСМ**

**«ИННОВАЦИОННЫЕ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЧЕНЫХ И МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА»
ЧАСТЬ-8**

**«INNOVATIVE SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH OF SCIENTISTS AND YOUTH OF
UZBEKISTAN»
PART-8**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари” [Тошкент; 2021]

“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари” мавзусидаги республика 35-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 21 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Hojiyeva Shohida Nusratullayevna	
ALPOMISH DOSTONIDA MILLIY VATANPARVARLIKNING IFODALANISHI	7
2. Rahmonova Diyora, Qobulova Nodira Bahodirovna	
ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA ONA SIYMOSINING YORITILISHI	9
3. Davletova Nigora Otamuratovna, Qurbanova Dilafro'z Matqurbanovna	
ADABIYOT DARSLARIDA KO'RGAZMALI QUROLLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	12
4. Jo'rayeva Shahriniso Salomovna	
YASSAVIY HIKMATLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI	14
5. Shapoatova Dilnavoz	
ADABIYOT INSONNING BOQIY TARBIYACHISI.....	15
6. Орынбаев Турғанбай Базарбаевич	
XIX ƏSIR QARAQALPAQ LIRIKASIYNIŇ IZERTLENIY ӨZGEŞELIKLERI.....	17



АДАБИЁТ

ALPOMISH DOSTONIDA MILLIY VATANPARVARLIKNING IFODALANISHI

Hojiyeva Shohida Nusratullayevna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

12- umumiy o'rta ta'lim maktabi

til va adabiyot o'qituvchisi

Telefon raqami :+998912494020

Annatsiya: Maqolada darslarda o'quvchi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunasi «Alpomish» dostonidan o'rinli foydalanish ,milliy qadriyatlar orqali xalqparvarlikni ulug'lash haqida fikr yuritilgan

Kalit so'zlar: milliy qadriyatlar,or-nomus,shoh bayt, Murodtepa, ruhiy va ma'nan yetuklik,ezgulik, Avesto

Alpomish “ dostoni o'zbek xalq og'zaki ijodining qadimiy va keng tarqalgan katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan yorqin namunasi sanaladi.Dostonlar har bir xalqning orzu umidlari ,intilishlarining ifodasidir.«Alpomish» dostonining o'ziga xos jihatlardan biri o'zbekona milliy urf-odatlarining , umrboqiy qadriyatlarning ,xalq turmush tarzining aks ettirilishi bilan ham diqqatga sazovor. Dostonda yurt uchun kurash lavhalaridan tortib,ota-onaning so'zini ikki qilmaslik,ular hurmatini joyiga qo'yish,ustoz piru komillarga bo'lgan hurmat ,qizlar sha'ni ,yigit or-nomusi va bir so'zli bo'lishi ,yoriga ,do'stiga sadoqat bilan vafo qilishi kabi qadriyatlar ulug'lanadi. Bu qadriyatlar o'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan .Dostonning asrlar osha yashab kelayotganligiga sabab ,asardagi o'lmas milliy qadriyatlar,an'ana urf-odatlarining bir-biri bilan voqeaband bo'lib kelishi zahirida kitobxonni odil va haqqo'y bo'lishga, o'z yurtini , oilamiz qo'rg'onini qo'riqlashga, do'st- u yorimizni , or- nomusimizni, ota - bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi. Shu o'rinda doston haqidagi ushbu fikrlarni eslash joiz :

Agarki xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tuganmas bir doston bo'lsa, «Alpomish» ana shu dostonning shoh bayti ,degan..

O'quvchi yoshlar ongida vatanparvarlikni ,yurtga sadoqatni tarbiyalashda «Alpomish» dostoni qahramoni Hakimbek , ya'ni Alpomishning timsolidan yuksak insoniy fazilatlar bilan yo'g'rilgan mardlik va jasurlikda er yig'itlardan qolishmaydigan Oybachin va Qaldirg'och timsollaridan o'rinli foydalana olsak maqsadimizga erishamiz. Chunki bu dostonda o'zbek xalqiga xos ezgu fazilatlar va sifatlar haqqoniy hamda ta'sirli aks etgan.Qo'yidagi parchaga diqqat qilsak: Qorajon Murodtepaning ostiga kelib qoldi.Shunday tepaning boshiga qaradi.Tepaning boshida Yusuf tal'atli,Rustam sifatli,chovkar otli biron yonboshlab yotibdi. Bu bizning Qalmoq viloyatining odami emas,bunday yigitlar... bo'lsa,beklikda, podsholikda bo'lar edi.Ilgaridan ham birda-yarim ko'zim tushar edi.Magar qirq chilton bilan rasul payg'ambar meni musulmon qilib, qavm-qarindoshini tushimda ruhima ko'rsatib,meni do'st qilgan,qo'ng'irotdan kelayotgan Alpomish degan komilbachcha shul bo'lsa, -deb Alpomishga qaradi.

Ana shu jasurlikni Qalmoq yurtida borib qo'nim topgan Boysaribiyning qizi Oybachinda ham ko'rish mumkin.Qalmoq yurtida Oybachinni olaman deb to'qson alpga bosh bo'lib Ko'kaldosh polvon keladi va Boysariga qarab: Hoy Kelganboy,sening bir qizing bor ekan .Qani birimizga berasanmi,barimizga berasanmi?Shu so'zga nima javob berasan? bu so'zni eshitib Boysarining boshidan hushi uchib , yig'lab xalqiga murojaat qildi .Shunda Oybachin otasiga qarab shunday dedi:



Sen yig‘lading, ota, ko‘ngil buzildi,
Diyda giryon bo‘lib bag‘rim ezildi.
Xafa qilma, ota, menday qizingdi,
Qo‘ya ber alplarga mening o‘zimdi.

Oybarchin alp qalmoqlardan olti oy muxlat so‘raydi. Alpomish Qo‘ng‘irotdan kelsa kelar kelmasa peshonamdan ko‘raman deydi. Qadimda qizlar ham milliy o‘yinlar chovkar o‘yini bilishi, otda yurish, kamondan o‘q uzish, arqon toptish kabilarni o‘zlashtirganlarku, bunda ulardan chaqqonlik, topqirlik va merganlik san‘ati ham talab qilingan. Oybarchin ham o‘ziga ishongani uchun qo‘rqmay alplarning oldiga chiqib muhlat talab qilgan. Aslida ana shu oyjamol qizlarning shijoati, ma‘naviy daldasi yurtini asrashda, himoya qilishda yig‘itlarga kuch, qanot bag‘ishlagan. Darslarda o‘quvchi yoshlarni yurtga sodiq va munosib fidoyi farzand qilib tarbiyalashda «Alpomish» dostonidan unumli foydalanish o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq. Bugungi kunda Surxondaryo viloyatida Alpomishga haykal o‘rnatilgan. Bu ham xalqning o‘z milliy qahramonlariga bo‘lgan hurmat-ehtiromi namunasidir.

«Alpomish»da ilgari surilgan ezgulik g‘oyalari asrlar o‘tibdiki, hali hanuz o‘z qiymatini yo‘qotgani yo‘q. Shubhasiz yillar o‘tadi, yurtimizda avlodlar almashadi, yaxshi va yomon xulqli insonlar umrguzaronlik qilaveradi, vaqt esa oliy hakamligicha qoladi.

Barcha zamonlardagi kabi yaxshilikning umriboqiy shabadasi mudom yovuzlikning to‘fonli, umri qisqa shamollari ustidan shirin epkinlarini yoyib esaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A. Karimov “Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch” Toshkent -2010.
2. Xalq og‘zaki ijodi “Alpomish” dostoni. Toshkent-2018.
3. “Avesto” Toshkent-2015.



ABDULLA ORIPOV SHE‘RIYATIDA ONA SIYMOSINING YORITILISHI

Rahmonova Diyora

Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha va
boshlang‘ich ta‘lim fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: Qobulova Nodira Bahodirovna

Navoiy davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchi, f.f.f.d(PhD)
nodiraqobulova@mail.ru Tel: 998907327080

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Oripov she‘riyatidagi ONA siymosi to‘laqlonli aks ettirilgan. Kalit so‘zlar: soddalik, ezgu fazilatlar, samimiylik, ona, kamtarlik, quvonch

Dunyoga shoir yozuvchi bo‘lib tanilgan ijodkorlar borki, hech birida “ONA” mavzusi chetda qolmagan. Barchalari qalbidagi samimiy tuyg‘ularni o‘z satrlarida jonlantirgan, umri davomida ayta olmagan so‘zlarini, isxorlarini misralarda aks ettirgan. Chunki ona bu mehrdaryo, qalbi pok, faqatgina “bolam” deya qayg‘uradigan, yemay yediradigan, kiymay kiydiradigan, minnat neligini bilmaydigan ojizadir. Shuning uchun ham bu mo‘tabar zotni sevamiz, ardoqlaymiz. Shu shoirlar qatorida “ONA” timsolini o‘z asarlarida, lirikasida go‘zal tashbehlar orqali tasvirlagan, haqiqiy O‘zbek ayoliga xos bo‘lgan sifatlarni aks ettirgan, misralarda kamtarlik, soddalik, samimiylik, o‘qiganlar qalbida o‘zgacha mehr tuyg‘ularini uyg‘ota olgan O‘zbekiston Xalq shoiri, Hamza hamda Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofotlari laurenti, O‘zbekiston Qahramoni va O‘zbekiston Respublikasi Davlat ramzi-madhiyamiz muallifi Abdulla Oripovni keltirish bilan cheklanamiz.

Abdulla Oripov ijodiga nazar tashlar ekanmiz, shoir she‘rlarida barcha insoniy, ezgu fazilatlar, iymon, g‘urur, insof, soddalik, samimiylik, kamtarlik, mehr-muhabbat tuyg‘ularining o‘ziga xos tarzda tasvirlanganiga guvoh bo‘lamiz. Abdulla Oripov XX asr 60-yillarida adabiyotimiz tarixiga selday kirib keldi. She‘rlari chop etilishi bilanoq adabiy jamoatchilik e‘tiborini tortdi. Abdulla Oripov ijodining boshqa yozuvchi, shoirlardan ajralib turadigan jihati ham shuki, she‘rlarida inson g‘am-anduhlarini, orzu-umidlarini, qalb iztiroblarini va ichki kechinmalarni to‘laligicha ifodalay olishida deb bilaman. Professor I. Haqqul ta‘kidlaganidek : “ A. Oripov she‘riyatida esa ahvol bir qadar boshqacha. U dil-dildan bahs va qizg‘in munozaralarga kirishishni sevadigan shoir. Uning dilida so‘z ehtiros bo‘lib yonib, ruhan go‘yo shiddatga to‘ladi. A. Oripov qanday ma‘no-mohiyatni ifodalamasin yetakchi tuyg‘ularga mos so‘zlarni ham topa oladi□.¹

Ma‘lumotlarga qaraganda, birinchi bo‘lib Yer yuzidagi eng pok suv - Zam-zam suvini ichishga erishgan ayol - Hojar onamiz ekan. Shoir o‘zining “Ona” nomli she‘rida ham shu voqeani keltirib o‘tadi:

Hojar onamizning nidosi sabab
Ka‘bada ko‘z ochgan obi zam-zam ham.
Bir umr talpinmish onaga qarab,
Ne-ne payg‘ambarlar, ko‘zlarida nam.²

Shoir lirikasining o‘ziga xos jihatlaridan biri shuki, u oddiy xalq tilida yozilganligiga qaramasdan, tushunarli, g‘oyat ta‘sirli va voqealarni to‘laligicha ifoda etib bera oladi. Shoirning o‘zi aytganidek: “Men uchun har bir she‘r ustida ishlash - go‘yoki jang maydoniga kirgandek gap”.³

Ushbu jumalardan bilib olishimiz mumkinki, shoir har bir she‘rini shunchaki yozmagan, balki har bir so‘z va misralariga alohida e‘tibor bergan, she‘rlari ustida soatlab ishlagan, tinimsiz mehnat qilgan.

Abdulla Oripov o‘z onasiga, nafat barcha onalarga bag‘ishlab, “Onamga xat”, “Ayol”, “Onam vafotiga”, “Ona”, “O‘zbek onasi” kabi she‘rlar yozdi. Qaysidir ma‘noda “qalb ehtiroslarini” ushbu she‘rlarida aks ettirdi. Erka shoir “ONA” obrazini to‘la ta‘sirchan va mehrini yaqqol tasvirlagan. Misol tariqasida shoirning “Onamga xat” nomli she‘ridan parcha keltiramiz:



Yuragimni ochib gapirsam,
Kam-kam bo'lar menda bunday hol
Shodmon yursam, mening yodimga
Sen tushmaysan rostdan onajon.⁴

Ushbu satrlardan ko'rinib turibdiki, shoir onasiga “yuragini ochib” gapirishni xohlaydi, onasi bilan dildan suhbatlashishni istaydi. Ammo soddaligi, kamgapligi, tortinchoqligi bunday suhbatdan “mahrum” etadi. Shoir xursand, shod yurgan vaqtlarida onasi yodiga tushmasligin tan oladi. Chindan ham quvonchli kunlarimizda, onamiz yodimizga kelmaydi, ularni eslamaymiz. Ammo, kimdandir xafa bo'lsak, aldansak, tushkunlikka tushib qolsak, albatta, onamizni qumsaymiz, sog'inamiz. Ona qadri shunda bilinadi. Xalqimizda “Gung bolaning gapini, Kar onasi tushunadi”⁵ degan maqol bejizga aytilmagan. Bu yorug' olamda bizni so'zsiz tushunadiga yagona inson desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Abdulla Oripov shunday deydi: “Bir qarashda onalar haqida yozilmagan gap, aytilmagan so'z qolmagandek. Biroq bu abadiy mavzu! Bu mavzu hayot kabi doimiy harakatdadir. U aslo muzey eksponati yoxud yodgorlik emas. Deylik, har bir askar o'z onasini qanchalik sog'inib, ardoqlasa o'sha jarayonning o'zi mutlaqo yangi, orginal dostonidir. Demak, har kim o'z onasi haqida o'z so'zini aytishi mumkin va joizdir. Bu ulug' silsila hech qachon to'xtamay abadiy davom etaveradi. Men bir she'rimda aytgan edim:

“Onadan tug'ilgan payg'ambarlar ham!”⁶

Shoir yana bir she'rida onaga qo'l ko'tarmaslik lozimligi, agar qo'l ko'tarsa farzand sanalmasligini ta'kidlagan:

Ne tong, axir farzandmiz-ku shu zamonaga,
Axir ona siynasidan farzand tonolmas.
Qo'l ko'tarib bo'larmidi axir onaga,
Zotan, unga qo'l ko'targan-farzand sanalmas.⁷

She'r osongina yozilmaydi. Shoir yo quvonchini, yo alomini, dard -hasratlarini ifodalash uchun yozadi. Metodist olim Q.Yoldoshev aytganidek: “She'r g'amning o'z farzandi bo'lsa, quvonchning o'gay bolasidir”.⁸ Bundan anglab olishimiz qiyin emaski, ko'pgina she'rlar g'amginlikda dunyoga keladi, aksariyat she'rlar esa quvonchli kunlarda yoziladi.

Abdulla Oripov onani mehrga qiyoslaydi. U “Onajonim” nomli she'ri haqida shunday deydi: “Men onamga bag'ishlagan she'rimni marsiya desa ham bo'ladi, uzoq vaqt yozdim. O'sha vaqtdagi ahvol-ruhiyatimdan so'z ochmay qo'ya qolay. Lekin men bu she'rni matbuot uchun yozgan emasman. Hech qachon g'am odamning bayrog'i bo'lolmaydi. Ikki yil she'rni e'lon qilmadim. Sababi, mendan keyin uchta singlim bor edi. Bu she'rni o'qishsa, ular uchun onam ikkinchi marta qazo qilgandek bo'lardi-da”.⁹

“Onajon” nomli she'ri quyidagi satrlar orqali yakunlanadi:

Dilda neki jur'atim bor,
Dilda neki hayajon,
Bari, bari senga bo'lsin
Senga bo'lsin, onajon.
Senga bo'lsin bor hayotim,
Nomim, shonim bir yo'la,
Xotirangga ushbu she'rni
Yozdi o'g'ling Abdulla.¹⁰

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, Abdulla Oripov qaysi bir mavzuda she'r yozmasin, barchasida hayot nafasi ufurib turadi. She'rlarini mutolaa qilar ekanmiz, shak-shubhasiz, bizga o'tmishni yodga soladi, o'ylantiradi. Ba'zi bir she'rlari xuddi o'zimizga atalgandek tuyuladi. O'zbek adabiyotshunoshi va munaqqidi Matyoqub Qo'shjonov shunday deydi: “Abdulla qaysi bir temaga qo'l urmasin nima haqida she'r yozmasin, uning ko'zi oldida Ulug' Vatan turadi, o'sha ulug' Vatanning farzandi sifatida qo'lga qalam oldi. Shu sababdan uning she'rlari doimo hayotbaxsh vafosi baland, ovozi dadil, ruhi tetik”.¹



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibrohim Haqul. “Mushohada yog’dusi” Toshkent:”Tafakkur” 2019 160-bet
2. Abdulla Oripov “Haj daftari” Toshkent 1992 6-bet
3. N.Rahimjonov. Mustaqillik davri o’zbek she’riyati. Toshkent. Fan-2007 220-bet
4. Abdulla Oripov “Mitti yulduz” Toshkent “Ma’naviyat” “Onamga xat” 4- bet
5. O’zbek xalq maqollari. “Sharq” nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati - 2005
6. Abdulla Oripov “Tanlangan asarlar” G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2013 168 - bet
7. Abdulla Oripov “Tanlangan asarlar” G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent - 2000 114 - bet
8. Q.Yo’ldoshev. “Yoniq so’z”. Yangi asr avlodi - 2006 250 - bet
9. Abdulla Oripov “Tanlangan asarlar” G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2013. 208 - bet
10. Abdulla Oripov “Tanlangan asarlar” G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent - 2000 106 - bet
11. Qo’shjonov Matyoqub “Kamalakday serjilo” - A. Oripov. “Yillar armoni” 3-bet



ADABIYOT DARSLARIDA KO‘RGAZMALI QUROLLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Davletova Nigora Otamuratovna
Qurbanova Dilafrō‘z Matqurbanovna

Xorazm viloyati Urganch tumani
42-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari

Annotatsiya: maqolada adabiyot darslarida o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlashda ko‘rgazmali qurollarning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlari: ko‘rgazmalilik, adabiy ta’lim, mumtoz adabiyoti, portret.

Ta’limning ko‘rgazmali vositalari ma’lum bir fandan bilimlarni o‘rganish va o‘zlashtirish xarakterini belgilaydi. Ta’limning bunday metodlaridan foydalanilganda o‘quvchilarning darslardan olgan bilimlari ko‘rgazmali vositalar yordamida shakllanadigan yoki esga tushiradigan hissiy obrazlarga, tasavvurlarga bog‘liq bo‘ladi. Og‘zaki tushuntirish kuzatishni tashkil etishda, tasavvurlarni bir maromga solishda, ularni o‘rganilayotgan fan mavzusi, g‘oyasi bilan bog‘lashda yordam beradi. Ko‘rgazmali qurollar bo‘lmasa, og‘zaki izohning deyarli foydasi bo‘lmaydi.

Adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarga ta’lim va tarbiya berish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Adabiyot o‘qitishning o‘zak nuqtasini adabiyot darslari tashkil etadi. Ayni mana shu jarayonda o‘qituvchi va o‘quvchi muloqotlarining oliy nuqtasi ko‘zga tashlanadi. Adabiyot darslarini yuqori tashkil qilishda ko‘rgazmalilikning ahamiyati nihoyatda katta.

Ko‘rgazmali qurollar turlicha ahamiyatga ega bo‘ladi. Ular bir holda faqat namoyish qilinadi. Ikkinchi holda esa abstraktsiyani shakllantirish jarayonini yengillashtiradi. Ko‘rgazmali qurollar yordamida vujudga keltiriladigan aniq hissiy obrazlarga tayanish abstrakt qoidalarni o‘zlashtirish jarayonini yengillashtiradi, bilimlarning tushunarliklik darajasini oshiradi.

Ko‘rgazmalilikning ikki turi: tashqi ko‘rgazmalilik va ichki ko‘rgazmalilik mavjud. Ichki ko‘rgazmalilik matnning mazmunini idrok qilishdir. Tashqi ko‘rgazmalilik o‘qituvchining nutqi, ifodali o‘qishi, tasviriyl san’at asarlaridan foydalanish, turli jadvallar, xaritalar, darsda qo‘llanilgan texnik vositalar (kino apparatlar, magnitofon, radiopriyomnik, televizor, videomagnitofon, kompyuter)dan foydalanish.

O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, ijodiy qobiliyati va mustaqil fikrlashini shakllantirish, darslardan olingan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlashda ko‘rgazmalilikning ahamiyati katta. O‘qituvchi ko‘rgazmali vositalardan adabiyot mashg‘ulotlarining hamma bosqichlarida keng foydalanadi.

Bugun an’anaviy ko‘rgazmalar qatoriga virtual ko‘rgazmalar tizimi ham kelib qo‘shilmoqda. Masalan, adabiyot darsida bir ijodkorning hayoti, ijodi, uning asarlari o‘rganilmoqda. Internet tarmog‘ida hozir ayrim yozuvchilarning saytlari paydo bo‘ldi. Ayrim ijodkorlar haqida internetda anchagina ma’lumotlar jamlandi. Zero, ko‘rish va eshitish bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rgazmalilik o‘quvchidagi ijodiy tasavvurni faollashtirish bilan omuxtalashib sinfdagi adabiy asar tahliliga jiddiy ijobiy ta’sir ko‘rsata oladi. Buning natijasida esa o‘quvchi o‘zi o‘qigan narsasiga mustaqil munosabatining shakllanish jarayonini tezlashtiradi hamda bu sohadagi bilimlarini mustahkamlaydi. Xususan, Ogahiyning g‘azallari o‘rganilmoqda. O‘qituvchi o‘quvchilar diqqatini shoirning nuroniy qiyofasiga jalb qiladi. Buyuk shoirning ma’naviy dunyosi rassomlar tomonidan qanday ishlangani haqida suhbat boshlaydi. Bu yerda tasviriyl san’at hamda musiqa yordamga kelishi mumkin. Ogahiy portretidan, Xivaning qadimiy va zamonaviy rang-tasvirda aks etgan manzalaridan, Ogahiy she’rlarining qo‘shiq qilib aytiladigan variantlarini audio-video vositalar yordamida eshitish, uning rangli tasvirlarini ko‘rish o‘quvchining hayotiy tajribasini boyitadi, uning ruhiyatiga kuchli emotsional-hissiy ta’sir o‘tkazadi. Yozuvchi hayoti va ijodini o‘rganishda o‘quvchilarga namoyish qilinadigan asosiy narsa uning tug‘ilgan va vafot etgan yillarini ko‘rsatuvchi sanalardir.

Badiiy asarni o‘rganishning barcha bosqichlarida ko‘rgazmali vositalardan foydalanish yaxshi natija beradi. Darsga material tanlanadi. Material tanlashda o‘qituvchi uning sifatiga e’tibor beradi, undan foydalanish usulini belgilab oladi. Darsda o‘tilayotgan mavzu xususiyatiga ko‘ra, ba’zan bir necha xildagi ko‘rgazma vositalaridan foydalaniladi. Masalan, “Furqat ijodi” mavzusi bo‘yicha



tashkil etilgan kirish mashg'ulotida shoirga nisbatan muhabbat orttirish maqsadida kinokadrlar to'liq ko'rsatiladi, audio yozuvlar adabiyotshunoslarning fikrlari eshittiriladi. A.Navoiy hayoti va ijodi haqida ma'lumot berishda uning g'azallari audio yozuvlarini eshittirish bilan birga, shoirning rasmi ham namoyish etiladi. Alisher Navoiyning hayoti va ijodi o'rganilayotganda o'quvchilarga shoirning O'rol Tansiqboyev ishlagan rasmi ko'rsatilgan paytda "O'rol Tansiqboyev Alisher Navoiy rasmini qay tarzda yaratgan?", "Rasmda Alisher Navoiyning fikr o'ylari, xarakteri qanday ifodalangan?", "Bu rasm mazmunini og'zaki bayon qiling" kabi savol va topshiriqlar bilan murojaat etiladi.

Bundan tashqari, yozuvchi hayoti, ijodi yoki obzor materiallarini mumtoz adabiyot bilan bog'liq ravishda o'rganish (arxitektura, tasviriy san'at) usullari ham bor. Masalan, maqom kuylari, Samarqand, Xiva, Buxoro me'morchilik yodgorliklari, o'zbek rassomlari va xattotlari (Behzod, Sulton Ali) ning ijodlari haqida suhbat o'tkazish va bu san'at namunalarini adabiyot materiali bilan bog'lash estetik va milliy iftixor tuyg'ularini o'stirish jihatidan katta ahamiyatga ega.

Adabiyot darslarida asar mazmunidan kelib chiqib, ko'rgazmali qurollar yaratish o'quvchilarda ijodkorlik, o'zaro hamkorlik, yozuvchi, uning asarlariga muhabbat uyg'otadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ko'rgazmalilik prinsipini amalga oshirish orqali o'quvchilarning qayta xotiralashga asoslangan faoliyatini ham, qisman izlanuvchanlik faoliyatini ham, ijodiy faoliyatni ham uyushtirish mumkin. Ko'rgazmali qurol me'yorida qo'llanilishi lozim. Haddan tashqari ortiqcha ko'rgazmali vosita o'quvchilarni toliqtiradi; fikrning asosiy masaladan chetlashishiga olib keladi: o'quv materiali uchun ajratilgan vaqtning yetishmasligiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. To'xliye B va bosh. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: 2006
2. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: 1996
3. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: 2012



YASSAVIY HIKMATLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Jo`rayeva Shahriniso Salomovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 12-maktab

Ona tili va adabiyoti fani o`qituvchisi

Telefon: +998 90 620 30 91

Annotatsiya: Ushbu maqola Ahmad Yassaviyning hikmatlari va ularga xos xususiyatlar, ularning tarbiyaviy ahamiyati, nafsga qarshi kurash masalasi, Yassaviy hikmatlarining tasavvuf falsafasiga tegishli jihatlari, oshiqning shariat, tariqat, ma`rifat bosqichlaridan o`tib haqiqat martabasiga yetishishi haqida so`z yuritiladi.

**Kalit so`zlar:** hikmatlar, tasavvuf, shariat, tariqat, ma`rifat, tarbiya, oshiq.

Ahmad Yassaviy – mutasavvuf shoir. Adib tasavvufni inson ma`naviyatini yuksaltiruvchi muhim omil sifatida biladi. Bundan maqsad insoniyatni to`g`ri yo`lga da`vat etishdir. To`g`ri yo`l haqiqatni anglashga olib kelmoq kerak. Haqiqatni anglash o`zlikni anglashdir. Bunga erishmoq uchun kishining hidoyat yo`liga kirmog`i, butun kuch va vujudini shu yo`lga qaratmog`i kerak. Ahmad Yassaviy hikmatlarining tasavvuf falsafasiga tegishli jihatlari ustida mulohaza yuritganda, oshiqning shariat, tariqat, ma`rifat bosqichlaridan o`tib haqiqat martabasiga yetishini eslash o`rinli bo`ladi. Shoir bu bosqichlarda islom dini hukmlarini o`zida mujassam etgan shariatni yaxshi bilish zarurligini uqtiradi.

Ahmad Yassaviyning barcha hikmatlariga xos yana bir xususiyatni ta`kidlash o`rinli bo`ladi. Bu – nafsga qarshi kurash masalasi. Shoir hamma vaqt nafsdek baloyi azimni yenga olmagan odamga achinadi, unga tanbeh beradi. Nafsni jilovlagan odam sabr-qanoatga erishadi. Agar oshiq bo`lsa, bunday sabrli ishq egasining “mahshar kunida armoni” bo`lmaydi. Ishq muhokamasiga doir ushbu hikmatning boshqa bir bandida “Nafsni tepib dargohiga loyiq bo`lg`il” deb ta`kidlanadi. Bu nafsini yenggan va uning istaklarini bartaraf etgan odamgina chin oshiqlik martabasiga ko`tarila olishiga doir mulohazadir.

Ishq tushding, o`tga tushding, kuyib o`lding,
Parvonadek jondin kechib axgar bo`lding,
Dardga to`lding, g`amga to`lding, telba bo`lding,
Ishq dardini so`rsang hargiz darmoni yo`q.

Ushbu bandda chin oshiqning holi yana ham kuchaytirib ko`rsatiladi. Ishq dardiga uchragan odamda juda katta ruhiy o`zgarishlar bo`ladi. Ahmad Yassaviy uni bamisoli o`tga tushgan odam holiga qiyoslaydi. Ikkinchidan, sham tegrasida aylanib kuyan, axgar (laxcha cho`g`) bo`lgan kapalakka o`zshatadi. Eng muhimi, ishq o`tida dard, g`am hamda telbalik bor. Ammo bu dardning darmoni topilgan emas. Boshqa bir mumtoz vas sho`ir ta`biri bilan aytganda “bu dardni bedavo derlar” (Mashrab). Ishqning bunday xususiyatlarini ta`riflab Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida yozadi: “buni ko`rmagan kishi bo`lmas va bunga yetmagan kishi bovar (ishonch) qilmaskim, hijron- ufiroq mundin iboratdur...”. Shu ishq tavsifiga bag`ishlab Navoiy “Layli va Majnun” dostonini tozganini sizga ma`lum. Ahmad Yassaviy ta`kidlaydiki, ishq odamning “Majnun sifat aqlin olib laylo qilur”, yana davomidan ta`kidlaydi – “Olloh haqqi bu so`zlarni yolg`oni yo`q”.

Yassaviy har vaqt nafs haqida gapirganida unga insonning kamolotiga xalaqit beradigan yovuz va yaramas kuch sifatida baho beradi. Nafsga “shum” sifati beriladi. Shuningdek, shoir “nafsi bad”, “nafs yo`li”, “nafs ilgi” singari istioralarni ham qo`llaydi. Adib to`g`ridan to`g`ri nafsga qarshi kurashni, uning yo`rig`iga yurmaslikni targ`ib qiladi. Nafsning domiga ilinish insonni qanchalik yer bilan yakson qilishini juda yorqin ifodalarda ko`rsatib beradi.

Nafs yo`lig`a kirgan kishi rasvo bo`lur,
Yo`ldan ozib, toyib, to`zib gumroh bo`lur.
Yotsa, qo`psa shayton bilan hamroh bo`lur,
Nafsni tepkil, nafsni tepkil, ey badkirdor.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxati:

1. B. To`xliyev, B. Karimov. Adabiyot. 8-sinf darsligi. Toshkent. 2017-yil.
2. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. Toshkent. 1991-yil.
3. H. Ne`matov. Yassaviy hayotiga oid ba`zi sanalar. O`zbek tili va adabiyoti. 1992-yil.



ADABIYOT INSONNING BOQIY TARBIYACHISI

Shapoatova Dilnavoz

Surxondaryo viloyati Qumqo‘rg‘on tumani
34-sonli maktab 9-sinf o‘quvchisi

Annotatsiya: maqolada adabiyotning insonning ma’naviy tarbiyachi ekanligi, yoshlarning kitob o‘qish madaniyatini rivojlantirish xususida fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlari: adabiyot, ma’naviyat, yoshlar, badiiy adabiyot.

Ma’naviy yuksalishning eng samarali yo‘llaridan biri kitobga oshno tutinish va adabiy-badiiy asarlar mutolaasiga ixlos qo‘yishdir. Adabiyot bag‘rida insonparvarlik, adolat, shafqat, do‘stlik, mehr-muruvvat, sevgi-muhabbat, go‘zallikka tashnalik kabi o‘lmas insoniy tuyg‘ular jamuljam. Badiiy adabiyotda insonning o‘y-xayollari, orzu-istaklari to‘laroq aks ettiriladi. Respublikamizning birinchi prezidenti Islom

Karimov: “Ma’naviyatni tushunish, anglash uchun, avvalo, insonni tushunish, anglash kerak”, -degan edilar. Bu esa badiiy asarlarda quruq fikr aytish bilangina kifoyalanilmay, kishining tuyg‘ulari va hissiyotlariga ham ta’sir ko‘rsata oladigan, o‘quvchini o‘z olamidani yangi bir o‘zga orzular olamiga olib chiqadigan, dunyoga hayrat ko‘zlari bilan qaratadigan go‘zal satrlar bitish kerak degani bo‘lsa ajab emas. Milliy adabiyot esa milliy ruhni aks ettirib turishi lozim. Har bir millatning o‘tmishi, buguni va ertasi bo‘ladi. Adabiyot esa bu uchlikni turfa timsollar orqali jamuljam qiladi. Insonlar badiiy asarlarni ko‘proq mutolaa qilsalar, ular, albatta, ruhiy kamolot sari qadam qo‘ygan bo‘ladilar. Bu esa adabiyotning ma’naviyat xazinasi ekanligini ifodalaydi. Ulug‘ shoirimiz Abdulhamid Cho‘lpon aytganidek, “Hech to‘xtamasdan harakat qilib turgan vujudimizga, tanimizga suv, havo naqadar zarur bo‘lsa, maishat yo‘lida har xil qaro kirlar ila xiralangan ruhimiz uchun shul qadar adabiyot kerakdur. Adabiyot yashasa, millat yashar...” Chindan ham adabiyot ma’naviy haqiqatlarni aks ettiradi. O‘zligimizni, tariximizni anglab yetishimizda ko‘nglimiz orqali olamni tanishimizda ko‘maklashadi. Adabiyot yana bizni tariximiz bilan ham tanishtiradi. Chunki tariximizni bilmay, qadrlamay turib porloq kelajak sari qadam qo‘ya olmaymiz. Bu haqida O‘tkir Hoshimov shunday fikrlarni aytadi: “Nuqul o‘tmishidan noliydigan inson kelajagini barbod qilishi mumkin. O‘z ildizini inkor qilgan daraxt qurib qoladi”. ...

Badiiy asarlar ta’sirchanligi, musiqiy ohangi, jozibasi bilan kishini o‘ziga jalb qiladi shu asnodan ular insonlar ruhini tarbiyalaydi. Adabiyot insonlarga dunyo hodisalari mohiyatini anglash, insonga xos tuyg‘ularning rangin qirralarini his eta olish, insoniy fazilarlar va nuqsonlar mohiyati haqida o‘ylash imkonini beradigan, har bir shaxsni ruhiy kamolot hamda yuksak ma’naviyat egasi sifatida shakllantiradigan muhim vosita hamdir.

Adabiyot go‘yo yerdan otilib chiqayotgan toza buloq suviga o‘xshaydi. O‘sha buloq suvining bir tomchisi ham jonimizga huzur bag‘ishlagani kabi adabiyot ham sekinlik ila qalbimizning tub-tubiga singib, hayot davomida orttirgan qalb jarohatlarimizga malham bag‘ishlaydi. O‘qiyotgan har bir asarimiz bizni yangi olamga, turfa taqdir, chigal qismatlar ro‘parasiga olib chiqadi. Asar voqealari bilan ulg‘ayib, mashaqqatli yo‘llarni ortda qoldirib, nurli tonglarni qarshilab, muammolar yechimiga guvoh bo‘lamiz. Bu yechim esa bizga xatolarimizni tan olib, nurli kelajak uchun dadil qadam tashlashga undaydi.

Inson uchun bugungi kunda tansiq bo‘lib borayotgan mehrning ulug‘ligini atoqli adibimiz Said Ahmadning “Qorako‘z Majnun” hikoyasini o‘qib guvoh bo‘lganmiz. Oddiy jonivorning egasi Saodat ayaga bo‘lgan mehri biz insonlarni larzaga soladi, tarbiyalaydi... Asarni o‘qirkanmiz har tomonlama mukammal qilib yaratilgan inson ham orzu havaslar, yolg‘on ishq – muhabbat ortidan quvib qiymati tengsiz, olmosdek kamyob mehrni unutib, Bo‘rixonning ahvoriga tushadi.

Ajdodlari avaylagan qadri baland milliy qadriyatlarini unutib qo‘yadi.

Demak, badiiy adabiyot har bir insonning ma’naviy dunyosini bebaho insoniy fazilatlar, o‘lmas milliy qadriyatlar bilan boyitadi. Qadimdan Sharqda adabiyotga insonni odob - axloqqa yo‘naltiruvchi ruhiy – ma’naviy manba sifatida qaraganlar. Adabiyot deganada umumiy ma’noda biror xalqning, davrning badiiy, ilmiy, falsafiy va boshqa asarlar majmui hamda ma’lum bir fan yoki sohaga, masalaga oid asarlar, kitoblar tushuniladi. San’at turi sifatida esa adabiyot so‘z vositasida badiiy obrazlar yaratuvchi sohadir. Badiiy adabiyot turli davrlardagi xalq hayotini, inson ruhiyatini o‘ziga xos qirralarini kashf etuvchi san’atdir...



Adabiyot ulkan daraxtga o‘xshaydi. Sohirlar so‘z sohiblari bo‘lgan adiblarimiz va shoirlarimiz o‘sha daraxtning mustahkam ildizlaridirlar. Bunday baquvvat ildizlar sifatida Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Mirkarim Osim, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Pirmqul Qodirov, Zulfiyaxonim, Saida Zunnunovalar nomini ehtirom bilan yodga olib, kelajak avlodlarga namuna qilsak arziydi. Zabardast adiblarimiz yaratgan har bir asar shunchaki insonlar taqdiri emas, balki adibning uzun tunlarida uyqusini, halovatini o‘g‘irlagan, qalbining tub-tubida vulqon misol yashiringan, qog‘ozga tushishi bilan otilib chiqib, o‘quvchi kitobxonni egri yo‘llardan, sgum niyatlardan qaytarib, to‘g‘ri yo‘llardagi oppoq orzularga yetaklaydigan, yaxshilik bekatida yaxshilarni kutishga chorlaydigan yog‘dudir. Shu boisdan ham ularning nomlari adabiyotimiz zarvaraqlarida muhrlangan.

Inson ham adabiyot kabi daraxtga o‘xshaydi. Daraxtni bog‘bon niholigidanoq mehr berib o‘stiradi. Insonni ham ota-onasi oq yuvib, oq tarab ulg‘aytiradi, hayot darslaridan saboq beradi. Ustozi esa o‘qish-yozish, ma‘naviyat nimaligini singdiradi. Shu boisdan adabiyotni hayot darsligidan saboq beruvchi ustozdir, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Demak, adabiyot insonning boqiy tarbiyachisidir.

Bu tarbiyachi maktab bag‘riga ilk qadam qo‘ygan kunimizdan doimiy hamrohimizga aylanadi. Bu hamrohga do‘st tutinganlar mustaqil fikr va aniq maqsad bilan yashaydilar. Hayotning o‘ydim-chuqur yo‘llarida yaltiroq liboslari bilan ko‘zimizni quvnatib, egri yo‘llarga boshlaydigan saroblardan ogoh bo‘lishimizga, milliy o‘zligimizni saqlab qolishimizga, tariximizni mudom yodda tutishimizga tamal toshini qo‘yadi. Shunday ekan, biz yoshlar hayot yo‘llarimizda mayoq bo‘lib turgan kitobni bir lahza ham o‘zimizdan yiroqlatmaylik. Aksincha, uning bag‘ridagi barcha sir-sinoatlarni o‘rganishga, dur-u javohirlaridan bahramand bo‘lishga bel bog‘laylik. Zero, kitob hech qachon bizni aro yo‘lda qoldirmaydigan eng sadoqatli do‘stdir.



ХІХ ҲСИР ҚАРАҚАЛПАҚ ЛИРИКАСЫНЫҢ ИЗЕРТЛЕНИЎ ӨЗГЕШЕЛИКЛЕРИ

Орынбаев Турғанбай Базарбаевич
Қарақалпақ мәмлекетлик университети
таяныш докторанты
Телефон: +998(97) 220 24 46
orinbaev.turganbay@yandex.ru

Аннотация: Бул мақалада ХІХ әсир қарақалпақ лирикасының жанрлық тәбиятын изертлеўге арналған илимий мийнетлер талқыға тартылған. Әсиресе Қ.Жәримбетовтың монографиясындағы ХІХ әсир қарақалпақ лирикасын изертлеўдеги жаңа концепциясы басқа илимпазлардың мийнетлери менен салыстырмалы үйрениледи.

Калит сўзлар: Қарақалпақ әдебияттануы илими, қарақалпақ лирикасы, дидактикалық қосықлар, тәрийип қосықлары, налыш қосықлары, ғәззеллер, мураббалар, төртликлер

Әдебияттануы илиминде әдебий жанр мазмун (идея, тематика, проблематика) хәм форма (композиция, сюжет, көркем образ, т.б.) жағынан бөлип үйрениледи. Хәзирги әдебияттануы илиминде лирикалық жанрлардағы мазмун хәм форма мәселеси академиялық сабақлықларда, монографияларда, диссертацияларда хәр қыйлы көзқарастан талқыланған. Қ.Жәримбетовтың «ХІХ әсир қарақалпақ лирикасының жанрлық қәсийетлери хәм раўажланыў тарийхы» (2004) монографиясында ХІХ әсир қарақалпақ классик лирикасын көркем мазмунлық хәм поэтикалық формасы бойынша жиклегенде миллий өзіншелликлер есапқа алынған.

Өзбек әдебияттануы илиминде өзбек классик әдебиятының лирикалық шығармаларын изертлеў бойынша бир неше илимий жумыслар исленген. Бул илимий әдебиятларда лирикалық жанрларды үйрениўде Батыс хәм Шығыс әдебияттануындағы теориялық жантасыўлар көзге тасланады. Әдебиятшы Р.Орзибеков классик лирика жанрлары бойынша арнаўлы шуғылланды. Ол классик лирика жанрлар системасын үш бағдарда бөлип үйренеди.

1) мазмуны бойынша: хасби ҳол, марсия, чистон, қасида, муаммо, васф, ёр-ёр, бағишлов, дебоча, назира, фахрия, васият жанрлары.

2) формасы бойынша: мустазод, мувашшах, мушоара, ширу шакар, қитъа, ғазал, туюқ, рубоий, маснавий, фард, таркиббанд, таржиббанд жанрлары.

3) қатарлар (мисралар) саны хәм бәнтлик қурылысына қарай: мусамматлардың формаларын жатқарады (мусаллас, мурабба, мухаммас, мусаддас, мусабба, мусамман, мутасса, муашшар) [1. 9-10]

Р.Орзибековтың бул классификациясын әдебиятшы алым Х.Болтабоев өзиниң бир мақаласында сынға алады. Х.Болтабоев қитъа, ғазал, рубоий, маснавий, фард жанрларында да бәнтлер муғдары сақланғанлығын, формалық уқсас жанрларды қайтадан түрлерге ажыратыўдың мақсетке муўапық емеслигин атап өтеди. [2. 108] Алымның бул пикири куўатлаўға турарлық. Себеби, хәзирги әдебияттануы илиминде лирикалық жанрларды системаластырып үйрениўдиң еки усылы (мазмун хәм форма өзгешеликлерине қарап) нызамлық сыпатында тән алынған.

Қ.Жәримбетов өзиниң монографиясында усы қағыйданы басшылыққа алған ҳалда, ХІХ әсир қарақалпақ лирикасын көркем мазмуны бойынша: дидактикалық қосықлар, публицистикалық қосықлар, тәрийип қосықлары, налыш қосықлары, ашықлық (мухаббат) лирикасы, бәйитлер, нама ямаса хат қосықлары, назира қосықлары, юмор-сатиралық қосықлар, поэтикалық формасы бойынша: ғәззеллер, мураббалар, төртликлер, мухаммеслер, лирикалық поэмалар деп бөлип, оларды мысаллар тийкарында таллайды.

ХІХ әсир қарақалпақ классик шайырларының лирикалық шығармаларын идеялық-тематикалық хәм мазмунлық өзгешеликлерине қарай бөлип үйрениў өткен әсирдиң 50-жылларынан басланды. Бирақ бул изертлеўлердиң басым бөлеги әдебий портретлик характерде болып, арнаўлы бир шайыр дәретиўшилигиниң шеңберинде ғана иске асты. Әдебиятшы И.Сағыйтов Бердақ шайыр дәретиўшилигинде лирикалық қосықлар, эпослық шығармалар, дидактикалық қосықлар, юмор-сатира [3. 302] атамасындағы түрлердиң бар екенлигин атап өтеди. Қ.Байниязов Әжинияздың шығармаларын лирикалық қосықлар хәм поэма деп үлкен



еки топарға бөлип, лирикаларын ашықлық, философиялық ҳам сиясий лирикалар деп атады. [4. 55-84] К.Мәмбетов Әжинияздың лирикалық шығармаларын философиялық лирика, дидактикалық лирика, мухаббат лирикалары деген түрлерге ажыратты. [5. 28-47] Академик Х.Ҳамидов Әжинияз шығармаларының мазмунлық, тематикалық өзгешеликлерин бақлай отырып, ышқы мухаббатқа арналған қосықлар, патриотлық темаға қурылған қосықлар, дидактикалық мазмундағы қосықлар, күнделікли турмыс көринислерин сүўретлеўши қосықлар, айтыс қосықлары, социаллық мазмундағы қосықлар сыяқлы түрлерге бөлип үйренеди. [6. 147-148]

А.Пирназаров Күнхожаның «Түйе екенсең», «Ақ қамыс» шығармаларын тымсал жанрына киргизеди. [7. 16-18] Қарақалпақ әдебиятында тымсал жанры бойынша изертлеў алып барған изертлеўши О.Өтениязова Күнхожа, Әжинияз, Бердақ, шығармаларында тымсал анық таза түриндеги жанр сыпатында көринбегенин атап өтеди. О.Өтениязованың диссертациясында Сарыбай (1830-1898) шайырдың «Жарғанат пенен айтыс», «Айтарман» қосықлары тымсал жанры сыпатында талқыға тартылған. [8. 38-45] Ҳақыйқатында да, Күнхожа Әжинияз Бердақ шайырлардың қосықларында тымсалый (аллегориялық) образлар жаратылған. Солай болса да, әдебияттаныў илиминде бул шайырлар тымсал жанрын қәлиплестирди, деген теориялық жуўмақлар жоқ. Қ.Жәримбетовтың изертлеўлеринде де тымсал жанры ҳаққында сөз етилмейди. Жоқарыдағы Күнхожаның «Түйе екенсең» қосығы публицистикалық жанр түрине киргизилген.

Қ.Жәримбетовтың XIX әсир қарақалпақ лирикасының мазмунлық өзгешелигине қарап тоғыз түрге бөлип ажыратқанын жоқарыда көрсетип өткен едик. Илимпаз дәслеп дидактикалық қосықларды изертлей отырып, олардың мазмунлық ҳам көркемлик дәреклерин халық терме толғаўлары, XIV-XVIII әсирдеги қарақалпақ жыраў - шайырларының термелери, Ахмад Яссаўий ҳам Мақтымқұлы дәстүрлери менен байланыстырады.

Дидактикалық қосықлардың жетим-жесирлерге қол созыў, неке ҳам шаңарақ қатнасықлары, «жақсы адам» менен «жаман адам» түсиниги, ҳадал турмыс ҳам мийнет сыяқлы тематикалық айырмашылықлары Күнхожаның «Неге керек», «Керек маған» «Жетимлердің ҳақын жеп қойма», «Бара алмас», Бердақтың «Халық ушын», «Жақсырақ», «Ким айтар», «Қашан рәхәтланадурсаң», «Билгейсиз», «Надан болма», «Балам», «Екен», Әжинияздың «Нәсийхат», «Болурмы», «Хәр жерлерде дилгир мүтәж болсаңыз», «Хәр ким хатам болур пәний дүньяда», «Жигитлер», «Болмас», «Хәр кимсаниң яры болса», «Аржағында болмағанша» «Керекти», Өтештиң «Дәркар», «Қарыз алма» ҳам басқа да ақыл-нәсият үлгисинде жазылған лирикалары мысалында кең түрде үйрениледі.

Рус әдебиятшы алымы Г.Н.Поспелов әдебият изертлеўшилері жанрлық атамалар менен ис алып барғанда олардың мәнисине қарап айырымларын қолланыўдан алып таслаўы яки оған жақын мәни беретугын илимий терминди енгизиўи керек. Гейде жаңа терминлерди усыныўына туўра келеди – деп жазған еди. [9. 153] Қ.Жәримбетов XIX әсир қарақалпақ әдебиятында жаңа мазмунлық қәсийетке ийе болған лирикалық жанрлардың бар екенлигин дәлилледі. Оларды налыш қосықлары, нама ямаса хат қосықлары, назира қосықлары сыяқлы жаңа жанрлық терминлер менен атады. Алдыңғы илимий мийнетлерде бул жанрлық терминлер ушыраспайды.

Қарақалпақ шайырларының налыш қосықлары атлы темасында бул жанрдың өзине тән қәсийети, оның басқа жанрлардан айырмашылығы қарастырылады. «Налыш» сөзиниң илимий термин сыпатында енгизилиўинде бул сөздің лексикалық мәниси тийкарғы орынды ийелейди. Налыш сөзи қайғы, уўайым, ҳәсирет дегенди билдиреди. [10. 338]

Налыш қосықларына классик шайырлардың налыш, сағыныш, күйиниш, айралық, муң-шер мотивлерине қурылған шығармалары киргизилген. Күнхожа, Бердақ, Әжинияз шайырлардың дәретиўшилигинде жоқарыдағы мотивлерге қурылған қосықлар белгили орынды ийелейди. Әдебияттаныў илиминде бул қосықлар хәр қыйлы терминлер менен аталып келген еди. Мәселен, Әжиниязтаныў илиминде Әжинияз шайырдың бул түрдеги қосықлары «Сиясий лирикалар» [4. 55-67], «Айралық ҳам ел журт атамасындағы қосықлар», «Хошласыў ҳам сәлемнамалар» [11. 35-76] сыяқлы хәр қыйлы атамалар менен берилип келинди. Оларды бир тәртипке салып ҳам ықшам жанрлық атама менен атаў басы ўазыйпалардың бири еди. Қ.Жәримбетов бул қосықларды мазмуны жағынан өз алдына әдебий жанр екенлигин дәлиллейди, теориялық жуўмақлар ислейди. «Себеби олардың барлық идеялық мазмуны, тематикалық бағдары, көтерген мәселелери сыртқы орталыққа



наразылық билдирилип, тәғдирге налыш етиў руўхында бериледи.» [12. 66] Бул жанрдағы қосықларға Күнхожаның «Көзим», «Көринбес», «Не болдым», «Мениң күним», «Жарыма-дым», «Әрманда», «Күн қайда», «Болар ма екен?», «Қашан көрермен», «Ойда», Бердақтың «Айралық», «Излер едим», «Пана бер», «Екен», «Болған емес», «Өмирим», «Ўәспим мениң», «Дәўран», Әжинияздың «Болур», «Дәўран болмады», «Ишинде», «Меңзер», «Енди», «Қуба куш», «Көңлим мениң», «Көзлерим» хәм басқалар киргизилген.

Қ.Жәримбетов XIX әсир қарақалпақ әдебиятында нама яки хат жанрында дөретилген лирикалық шығармалардың бар екенлигин атап өтеди. Әжинияздың «Шықты жан», «Сәлам дегейсең», «Молла Еримә» атлы қосықтарын басқа жанрлардан мотивлик қәсийетлери менен өз алдына ажыралып туратуғын түр сыпатында қарайды.

Қ.Жәримбетовтың изертлеўиндеги ашықлық (мухаббат) қосықлары жаңа бағдарда үйренілген. Онда суўфийзм тәлийматының тәсири ашып бериледи. Әжинияздың ашықлық қосықлары арасында қыз-жигитлердің арасындағы ышқыны сүўретлеўши қосықлар да бар. Монографияда Әжинияздың «Әй нәзәлимлер», «Гөззаллар», «Аманба», «Яқшыды», «Оян» қосықлары мазмуны бойынша бәйит жанрына киргизилген. Бәйит арабша «үй» сөзинен алынған болып, Шығыс әдебиятында кең тарқалған еки қатарлы қосықтың түри. Қарақалпақ бәйитлери бармақ қосық өлшеминде жазылған. Қарақалпақ бәйитлериниң жанрлық өзгешелигин ашып бериўде Қ.Жәримбетовтың терең илимий жантасыўлары дыққатқа ылайық.

Монографияда XIX әсир қарақалпақ лирикасы формалық өзгешелигине қарап ғәззеллер, мураббалар, төртликлер, мухаммеслер, лирикалық поэмалар болып жикленгенлиги ҳаққында жоқарыда айтып өткен едик.

XX әсирдің 70-жылларынан баслап көрине баслаған А.Муртазаевтың, К.Мәмбетовтың, Х.Ҳамидовтың, Б.Қалимбетовтың илимий мийнетлеринде Әжинияз шайырдың ғәззел, мурабба, мусамман, рубайы, қытға жанрларын қарақалпақ әдебиятына енгизгенлиги ҳаққында жазылады.

Қ.Жәримбетов XIX әсир қарақалпақ лирикасын көркем формалық өзгешеликлерин изертлеўде қәнигелердің илимий жуўмақларына сүйене отырып, оларға өзиниң көзқарасын да билдирип өтеди.

Қ.Жәримбетовтың классификациясында рубайы өз алдына жанрлық түр сыпатында үйренілмейди. Қәнигелердің рубайы деп келген қосықтарын ол төртликлер деп атайды. Рубайы менен төртлик жанрының уқаслық хәм айырмашылық тәреплерин талқылаўда автор олардың теориялық негизлерине итибар қаратады. «Дәстүр бойынша рубайы аруз өлшеми менен жазылады, ал аруз қосық өлшеми қарақалпақ поэзиясына тән қубылыс емес, оған жайдары қосықлар – силлабика өлшеми тән. ...Әжинияздың гейпара әдебиятшылар рубайы деп атап жүрген шығармаларын, бәлки, төртликлер деп атаған дурыс болар.» [12. 169] – деп жазады. Ҳақыйкатында да, төртликлер рубайының мазмун-мәнисин өзінде толық сәўлелендиреди. Төртлик жазыў XX әсир қарақалпақ шайырларының дөретиўшилигинде де ушырасады. Әсиресе, И.Юсупов төртлик жанрының тематикалық шеңберин кеңейтти.

Сондай-ақ, ғәззел, мурабба, мусамман жанрларының Шығыс классик поэзиясындағы китабий формаларынан ажыралып, жергиликли бармақ қосық өлшеминен тийкарланған миллий көркем формаларда қәлиплескенлиги Қ.Жәримбетов тәрепинен әдебий-теориялық аспектте ашып бериледи.

Пайдаланылған әдебиятлар

1. Orzibekov R. O'zbek lirik she'riyati janrlari. Toshkent: «Fan», 2006.
2. Шарқ мумтоз поэтикаси манбалари Ҳ.Болтабоев талқинларида. Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2008.
3. Сағыйтов И. Сахра бўлбили. Нөкис: «Қарақалпақстан», 1974.
4. Байниязов Қ. Қосықтың күши. Нөкис: «Қарақалпақстан», 1977.
5. Мәмбетов К. Әжинияз. Нөкис: «Билим», 1994.
6. Ҳамидий Ҳ. Шығыс тиллериндеги жазба дәреклер хәм XIX әсирдеги қарақалпақ шайырлары. Нөкис: «Билим», 1991.
7. Пирназаров А. Күнхожа, Әжинияз, Сыдық шығармаларында қолланылған дөретиўшилиқ усыллар. Нөкис: «Билим», 2000.
8. Өтениязова О. Қарақалпақ әдебиятында тымсал жанры: филол. илим. канд. дисс. ...



Нөкис. 1998.

9. Пospelов Г.Н. Проблемы исторического развития литературы. Москва: «Просвещение», 1972.

10. Қарақалпақ тилинің түсіндірме сөзлігі. III т. Нөкис: «Қарақалпақстан», 1988.

11. Әжинияз. Танламалы шығармалары. Нөкис: «Қарақалпақстан», 1988.

12. Жәрімбетов Қ. XIX әсир қарақалпақ лирикасының жанрлық қәсіетлери хәм раўажланыў тарийхы. Нөкис: «Билим», 2004.

“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”

(8-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович

Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович

Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
